

KREATIVLIK BOSHLANG'ICH SINIF TALQINIDA**Ahmadjonova Ozoda***Namangan davlat pedagogika instituti 1-kurs Magistranti*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda kreativlikning ahamiyati haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Uzluksiz ta'lim, boshlang'ich ta'lim, kreativlik, pedagogik texnologiyalar, zamonaviy metod.*

O'zbekiston Respublikasining uzluksiz ta'lim tizimining ajralmas va eng asosiy bo'g'ini boshlang'ich ta'lim ekanligini e'tiborga olgan holda aynan kreativ fikrlash ko'nikmasini rivojlantirishga shu bosqichda alohida ahamiyat berish maqsadga muvofiqdir. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarga nazariy va amaliy bilimlar hamda kreativ fikrlash ko'nikmalari bilan birga milliy urf-odatlar va qadryatlarni hurmat qilishi, manaviy, ruhiy, jismoniy jihatdan sog'lam va barkamol, fuqarolik burch va masuliyatini shakllangan bo'lib voyaga yetishlari kerak. Darhaqiqat bugungi kunda ta'lim sohasida olib borilayotgan keng ko'lamlı islohotlar, ta'lim mazmunini takomillashtirishga oid qabul qilingan hukumat qarorlari, ta'limni hayot bilan bog'lashni, o'qitish samaradorligini oshirishni, tez taraqqiy etib borayotgan jamiyat uchun har tomonlama rivojlangan faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalab, yetishtirishni talab qiladi. Bu o'rında ta'lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarning kirib kelishi va qo'llanishi davr talabi bilan bevosita bog'liqdir. Shuning uchun ham yosh avlodni rivojlangan huquqiy madaniyatli qilib tarbiyalash pedagog kadrlardan yangicha yondashuv hamda ijodkorlik, kreativlikni talab etadi. Avvalo boshlang'ich sinf o'quvchilarda fikrlash qobiliyatini shakllantirishda tanlanadigan zamonaviy ta'lim texnologiyalarini ijtimoiy buyurtma sifatida mavjud davlat talablariga va bozor iqtisodiyoti talablariga moslashtirish hamda ilmiylik tamoyili asosida ishlab chiqish, nazariya bilan amaliyotning o'zaro aloqadorligini ta'minlanishi va yana albatta o'zida insonparvarlik va demokratik xususiyatlarni aks ettirishga alohida ahamiyat berish zarur. Ta'lim tizimiga yangi kirib kelgan texnologiyalardan biri bu o'qitishning kreativ texnologiyasi bo'lib, uning maqsadi – insonda ijodkorlikni uyg'otish va uning o'zida bor bo'lgan ijodiy imkoniyat (potensial)ni rivojlantirishdir.

O'quvchilar o'z-o'zidan kreativ bo'lib qolmaydi. Uning kreativ qobiliyati ma'lum bir vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Bu rivojlanish jarayonida albatta boshlang'ich sinf o'qituvchisining roli kata ahamiyatga ega bo'ladi. Kreativ qobiliyatlarni yuzaga chiqarish va ularni shakllantirish uchun avvalambor o'quvchining fikrlash doirasini ya'ni ongini mukammal darajada o'stirishga harakat qilish lozim. Chunki fikrlash doirasi keng bo'lgan bolada fantaziyalar, yangi g'oyalar, kashfiyotlar yaratishga intilish juda kuchli tarzda rivojlanib boradi. Ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilarining hozirgi

globallashuv davrida zamonaviy texnologiyalar orqali kreativlikka qiziqish bilan intilayotganliklarini guvohi bo'lishimiz mumkin. Shu sababli ham bolani boshlang'ich sinf davridan mustaqil fikrlashga hamda o'z fikrini bemalol bayon qila olishlikka o'rgatib borilishi, uning ongini o'stiruvchi mashg'ulotlar tashkil qilinishi maqsadga muvofiq keladi. O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasini isloh qilishdagi say harakatlarining biri – bu o'quvchilarning zamon talablariga xamnafas tarzda ta'lim olishlari, har tomonlama rivojlangan komil shaxs bo'lib yetishishida chuqur bilim egallashlarini talab etmoqda. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarning kreativlik salohiyatini shakllanishiga turtki bo'ladi. Bugungi kunda dunyo miqyosida to'rtinchi sanoat tamaddunining dvigateli-xarakterga keltiruvchi kuchi kreativlikdir. Atrofga nazar tashlasak har tomonda inson ijodkorligining beqiyos va hayratlanarli namunalariga duch kelish mumkin: virtual reallik, to'rtburchak tarvuzlar, elektron xizmatlar, tuproqsiz hosil olish... bularning barchasi inson tasavvuri, tafakkuri mahsulidir. Odatiy bo'lib tuyulgan kitob, musiqa, samolyot va hattoki lampalar ham qachonlardir orzu va tasavvurda bo'lgan, keyinchalik aql-idrok samarasi natijasida yaratilgan. Bu esa o'z-o'zidan ta'lim va tarbiya ishlarining qonuniyatlarini o'rganuvchi pedagogika faniga «kreativlik» degan tushunchani olib kirdi

Kreativlik (lot , ing. “create” – yaratish, “creative” – yaratuvchi , ijodkor) – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati.

Har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z mutaxassisligini chuqur bilishi, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilishi, uslubiy modellarni to'g'ri tanlash qobiliyati, ta'lim jarayonidagi ta'sir mazmuni va usullarini loyihalashni bilishi zarur. Shundagina yetik mutaxassis bo'lishi mumkin. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kreativlik sifatlarini amalga oshirishda jamoaning o'rni beqiyos. Bunda o'qituvchi o'quvchilar jamoasini ijtimoiy ahamiyatga ega yagona maqsadni ko'zda tutuvchi, birgalikdagi faoliyatni tashkil etuvchi, umumiy saylab qo'yilgan organiga ega bo'lgan, mustahkamlik, umumiy javobgarlik bilan ajralib turuvchi, barcha a'zolarimng huquq va majburiyatlarda tengligi sharoitida majburiy aloqadorlikka ega bo'lgan o'quvchilar guruhini tashkil qilishda ijodiy yondashgan holda amalga oshirsa ko'zlagan maqsadga erishiladi.

Bolalarda kreativlikni rivojlantirishda quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:

1) ular tomonidan ko'p savollar berilishini rag'batlantirish va bu odatni qo'llabquvvatlash;

2) bolalarning mustaqilligini rag'batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish;

3) bolalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish;

4) bolalarning qiziqishlariga e'tibor qaratish.

Quyidagi omillar shaxsda kreativlikni rivojlantirishga to'sqinlik qiladi:

1) o'zini tavakkaldan olib qochish;

2) fikrlash va xatti-harakatlarda qo'pollikka yo'l qo'yish;

3) shaxs fantaziyasi va tasavvurining yuqori baholanmasligi;

4) boshqalarga tobe bo'lish;

5) har qanday holatda ham faqat yutuqni o'ylash.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarning kreativ qobiliyatini rivojlantirish usullari va vositalariga ta'sir qiluvchi muhim omillardan biri o'qituvchi-o'quvchilar hamkorligi ekanligiga alohida e'tibor qaratildi. Ma'lumki, ta'lim jarayoni ikki yoqlama xarakterga ega bo'lib, o'qituvchi va o'quvchilarning teng munosabatlaridan tashkil topadi. Bu jarayonga rahbarlik qiluvchi o'qituvchi ta'lim jarayonining to'g'ri tashkil etilishi, ta'lim maqsadlarining to'g'ri amalga oshirilishi va ta'lim natijalari uchun javobgar shaxs hisoblanadi. Ammo bu, ta'lim jarayoni o'qituvchining to'liq hukmronligi ostida amalga oshadigan jarayon, degan noto'g'ri fikrning tug'ilishiga asos bo'la olmaydi. Hozirgi davr talabi ham kimnidir bo'ysundirish orqali emas, balki hamkorlik munosabati yordamida ijobiy natijaga erishishdir. Ta'lim jarayonida o'quvchilar faoliyatining shakllanishi fan asoslarini o'zlashtirishga oid mexanizmga bo'lib qolmasdan, balki shaxsning umumiy ijtimoiy-madaniy qobiliyatlarini tarkib toptirishga ham qaratilishini unutmazlik lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta va o'rta maxsus kasb –hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-sonli qarori hujjatlari. 2017-yil

2. Pedagogika. O'. Asqarova va boshqalar. 7-bob. "Fan", 2004-yil

3. Egamberliyeva N., Xodjaev B. Pedagogikaning ayrim dolzarb muammolari: mohiyat, talqin va yechim. T.: –Fan va texnologiya, 2013.

4. Mavlonova R., Rahmonqulova N., Matnazarova K., Shirinov M., Hafizov S. "Umumiy pedagogika". Darslik. Toshkent, "Innovasiyon rivojlanish nashriyotimatbaa uyi", 2020, 526 b.

5. M.Usmonboyeva va A. To'rayev "Kreativ pedagogika asoslari". O'quv uslubiy majmua Toshkent, 2016, 193 b